

ABDURAUF FITRATNING HAYOTI VA IJOD YO'LI. "ABULFAYZXON" DRAMASIDA OBRAZLAR TALQINI

Otaboyeva Dilnoza

Urganch RANCH texnologiya universiteti o'qituvchisi

Otaboyeva Kumushoy

Urganch RANCH texnologiya universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada adibning hayoti va ijodi, o'zbek adabiyoti tarixiga qo'shgan salmoqli hissasi hamda adib dramaturgiyasining cho'qqisi bo'lgan "Abulfayzxon" tragediyasi haqida ma'lumotlar keltirib o'tiladi va asardagi obrazlar talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: adibning hayoti va ijodi, asarlar ro'yxati, "Abulfayzxon" tragediyasi, asosiy qahramonlar.

O'zbek adabiyoti tarixida o'zining yetuk asarlari ila o'chmas iz qoldirgan buyuk dramturg, shoir, olim, nosir, o'qituvchi serqirra ijodkor o'zbek jadidlaridan biri bo'lmish Abdurauf Fitrat nomi bilan tanilgan yetuk ijodkor bo'lgan. Abdurauf Abdurahmon o'g'li 1886-yil Buxoro shahrida Abdurahim o'g'lining adabiy taxallusi Fitrat bo'lib, bu so'z tug'ma iste'dod insonga Alloh bergan yaratuvchilik qobilyati ma'nolarini anglatadi. Zamondoshlarining aytishi bo'yicha, talabalik yillarida "Mijmar" taxallusi bilan ham g'azallar bitgan (*Hoji Ne'matulloh Muhtaram. Tazkiratu-sh-shuaro – Dushanbe, 1975. – B. 319-320*). Bu so'z "Cho'g'don, xushbo'y narsalar solib tutatiladigan idish" ma'nosini ifodalaydi.

Fitrat deyarli 17 yoshidayoq avval diniy, keyinchalik esa badiiy ijod va ilmiy tadqiqot ishi bilan jiddiy shug'ullana boshlagan. 1911-yilda adibning "Sayha" nomli she'riy to'plami Istanbulda bosib chiqarilgan. "Nega o'z yurtida emas aynan Istanbulda?" degan tug'ilsa bilingki buning javobi adib she'riyatini o'z yurtida nashr etilishiga Said

Olimxon ruxsat bermagan. Ammo, yosh Fitrat harakatdan to'xtamasdan o'z hisobidan she'riy to'plamini nashr qildirgan. Ushbu to'plamning nashriga to'sqinlik sababi esa vatanparvarlik haqidagi to'plam ekanligi bo'lgan.

Fitrat o'zbek she'riyatida yangicha tizim, barmoq vaznidagi she'r shakllariga yo'l ochib bergan ijodkordir. Biz buni adibning "Aruz haqida" risolasida ta'kidlagan fikrlaridan bilib olishimiz mumkin. Bular quyidagicha: "Barmoq vaznida she'rni boshlab Cho'lpon yozdimi, men yozdimmi esimda yo'q. Faqat shunisi ma'lumki, barmoq vaznini nazariy jihatdan yoqlab chiqqan birinchi o'zbek millatchisi men edim"(Fitrat. *Aruz haqida*. – Toshkent, 1936. – B. 20-21).

Fitrat barcha asarlarida istiqbol uchun, erkinlik uchun, o'z haq-huquqlarini himoya qilish uchun insonlarni, xalqni chorlagan desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Shuningdek, adib dramalariga ushbu ruh singdirilgan. U o'z dramalarida xalqning ayanchli o'tmishiga murojaat qiladi, o'tmishdagi qahramonlar jasoratini eslatish orqali xalqni qulikdan, xurlikka, o'z istiqboli uchun kurashga chorlaydi. Adibning bunday ruhda yozgan asarlariga "Temur sag'anasi" , "O'g'izxon" , "Abo Muslim" , "Qon" , "Abulfayzxon" va "Arslon" nomli asarlarini misol qilish mumkin.

Bilamizki, Fitrat dramaturgiyasining shoh asari shubhasiz, "Abulfayzxon" tragediyasidir. Asarda "Ashtarxoniylar" sulolasining so'nggi vakili Abulfayzxon davlatining tanazzuli hamda mashhur Eron shohi Nodirshoh yordamida Buxoroda Mang'it amirlarining hokimyatga kelishi bilan bog'liq tarixiy voqealar keltiriladi. Ushbu asar asosini Ulfat, Davlat, qozi Nizom singari badiiy to'qima va ulardan tashqari, Nodirshoh, uning inog'i Hakimbiy, Rahimbiy, Ibrohimbiy otaliq, tarixchi Mirvafolar kabi tarixiy shaxslar obrazlari tashkil etadi. Tragediyaning bosh qahramoni Buxoro xoni Abulfayzxon ham tarixiy shaxsdir. Asarning oxirgi beshinchi pardasi yakunida Siyovush timsolidagi hayoliy obrazga duch kelamiz. Muallif bu ramziy obrazni asarga zo'ravonlik va shafqatsizlikdan iborat g'ayri-insoniylikning oxiri fojiaidir, degan falsafiy ma'noga urg'u berish uchun kiritgan. Asarda muallif Ibrohimbiy obraziga alohida urg'u bergan. Sababi, drama yozilayotgan 1924-yilda go'yo xalq xohish-irodasi bilan amalga oshirilayotgandek , aslida esa, zo'rma-zo'rakilik bilan jumhuriyatlarini bo'lish jarayoni

amalga oshirayotgan edi. “Yurt egasi qurultoy bilan, xalq ma’qul ko’rganlar safidan saylanmog’I kerak”(A. Fitratning “Abulfayzxon” dramasi), deb qahramonni so’zlatgan Fitrat dramaga xalqning o’sha zamonlardagi orzularini ham keltirib o’tgan. “Abulfayzxon” dramasi orqali muallif o’zbek adabiyotida ilk bor inson va jamiyat munosabatlarini badiiy yo’sinda gavdalantirgan. Asar badiiyatiga singdirilgan asosiy ziddiyat toj-u taxt uchun kurash va ezgulik, insif, diyonat, adolat, g’oyalari o’rtasidagi kurash hayoliy obrazlar orqali o’z yechimini topadi. Asarning beshinchi pardasida toj-u taxt talvasasidan qalb ko’zlari ko’r bo’lgan johil Rahimbiy hech ikkilanmay 15 yoshli Abdumo’minning umriga zomin bo’ladi. Rahimbiyning bunday vahshiyona qilmishlariga hatto falak ham dosh berolmaydi. Endi bu qora ishlariga nuqta qo’yish, yana qon to’kilishining oldini olish shart. Shuning uchun ham “Ko’k gumburlab, qattiq bir yel esib, shamlarni o’chirib, taxtning orqasidan” bir sharpa- xayoliy obrazi keltiriladi. Xayol monologi dramada hal qiluvchi badiiy-estetik kuchga ega. Unda muallifning teran tarixiy, hayotiy falsafasi mujassamlashgan, badiiy tafakkur me’zonlari keltirilgan. Ayni xususiyatlari bilan xayoliy obraz nafaqat Rahimbiyni, balki, butun insoniyatni o’tkinchi mol-dunyo, amal-martaba uchun ma’naviy tubanlashib insoniylik ruhini yo’qotmaslikka chorlaydi.

Xulosa: o’rnida shuni aytish joizki, Fitratning hayoti va ijodiy faoliyati tarixning eng qaltis damlarida millat va vatanga xizmat qilishning yorqin namunasidir. Abdurauf Fitrat “Abulfayzxon” fojiasida ma’lum bir tarixiy davr fojialarini badiiy talqin qilish bilan birga o’zi yashab turgan ziddiyatlarga to’la muhit, zulm, zo’ravonlik va bosqinchilikka asoslangan tuzumning mohiyatini ham qaysidir ma’noda ochib bergan.

Adabiyotlar ro’yxati:

A.Fitratning “Abulfayzxon” dramasi.

Fitrat. Abulfayzxon. – M., 1924; / Tanlangan asarlar.1-jild. –T: ma’naviyat,2000 .

Fitrat. Aruz haqida. –Toshkent, 1936. –B. 20-21 .

Boltaboyev H. Abdurauf Fitrat. –Toshkent, 1992.

Abdurauf Fitrat. Eng eski turk adabiyoti na’munalari. // Adabiyotimizning tarixi uchun materiallar. –Toshkent: MUMTOZ SO’Z, 2008.